

МАХМУД ЗАМАХШАРИЙНГА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ-ЛИНГВЕСТИК АСАРЛАРИ

G'aniyev Akmaljon

Hadis ilmi maktabi "Islom ilmlari" kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning butun ilmiy faoliyati, xossatan uning lingvestik asarlari, arab tilshunosligiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mufassal, Kashshof, lingvestika, tilshunoslik, nahv, sarf, tafsir.

Hammamizga ma'lumki, arab tilshunosligi rivojida arablardan tashqari boshqa xalqlar olimlarning ham hissasi katta bo'lib, ana shunday olimlardan biri Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Zamaxshariydir. Olim "Abul Qosim" kunyasi bilan kunyalangan, ulug' shahar Makkai Mukarramada bir qancha muddat istiqomat qilganligi uchun "Jorulloh" nomi bilan ham tanilgan. Zamaxshariy yana "Xorazm faxri" laqabini ham olgan.¹ Odamlar uning ilmidan foyda olish uchun Xorazmga safar qila boshlagan so'ng, unga nisbatan ushbu "Xorazm faxri" laqabi ishlatila boshlagan. U hijriy 467-yil rajab oyining 27-kun (milodiy 1045-yilning 19-mart)ida, Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavvalud topgan.² Shunga ko'ra Zamaxshariy taxallusini olgan. Uning otasi o'z davrining ilmli kishilaridan bo'lib, Qur'oni karimni yoddan bilgan. Masjidda lik qilgan. Onasi ham savodli, oqila, fozila ayollardan bo'lgan.

Mahmud Zamaxshariy dastlab otasi ko'magida savod chiqardi. So'ng Xorazmdagi madrasada tahsil ko'rди. O'z bilimini yanada kuchaytirish niyatida Buxoroga keldi. Chunki Buxoro somoniylar davridan boshlab ilm-fan markaziga aylangan, bu yerda ilm-fanning dunyoga dong taratgan vakillari yig'ilgan edi. U Buxoroda o'qishni tugatgach bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'ldi. Shu vaqtida Xorazmshohlar davlati saljuqiylar sultanatiga bo'ysunar edi. Saljuqiylar hukumdori Malikshoh³ va uning vaziri Nizom-ul Mulk fan madaniyat homisi sifatida dunyoga tanildi. Bir qancha shaharlarda sunniy mazhabi bo'yicha shariatni o'rganadigan madrasalar qurdirdi. Bu madrasalar "Nizomiy" nomi bilan yuritildi. Xorazmda yetarli obro' etibor topmagan Zamaxshariy Nizom-ul Mulk huzuriga yo'l

¹ Ali ibn Yusuf Quftiy. Anbau-l-Ruvot ala Inbau-l-nuhot. Muhammad Abul Fazl tahriri ostida, 1-jild. – Qohira.: Dorul fikr, 1986. – B. 3

² Ibn Xallikon Ahmad ibn Muhammad. Vafayotu-l-A'yon va abnau abnai-z-zaman. Ehson Abbos tahriri ostida, 5-jild. – Bayrut.: Doru Sodir, 2007. – B. 183.

³ Malikshoh-Saljuqiylar davlati podshohi Abul Fath Malikshoh ibn Alp Arslon Muhammad ibn Davud ibn Miykoil ibn Saljuq ibn Daqqoq. U "Odil sulton" laqabini olgan. Qarang: Ibn Xallikon. Vafayotu-l-A'yon va abnau abnai-z-zaman. 4-jild. – Bayrut.: Doru Sodir, 2007. – B. 448.

oladi. Lekin Zamaxshariy mo'taziliy yo'nalishiga mansub bo'lganligidan bu yerda ham o'z qadrini topmadi.

Zamaxshariy Muhammad ibn Anushtegin asos solgan Xorazmshohlar sultanati vujudga kelgunga qadar Bag'dod, Hamadon, Makka singari dunyoning turli shaharlarida yurib, u yerdagи ko'plab olim-u fuzalolari bilan tanishdi. Muhammad ibn Anushtegin taxt tepasiga kelgach, Zamaxshariy o'z yurtiga qaytadi va Anushtegin mahramatidan bahramand bo'ladi. Anushtegin vafotidan so'ng uning o'g'li Otsiz ham otasining yo'lidan borib, Zamaxshariyga hurmat e'tiborda bo'lgan. Shunga qaramay u doimiy Makkaga talpinadi. Makkada uni amir Ibn Baqqos yana izzat ikrom bilan kutib oladi. Ibn Baqqosning yordamidan ilhomlangan Zamaxshariy o'zining Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan "Al-Kashshof" asarini yozib tugatadi. Zamaxshariy Makkada uch yil yashagandan so'ng vatanini qo'msaydi, Xorazmga qaytib, u yerda bir necha yil yashadi va 538-yilning arafa kechasi (milodiy 1143-yil) Jurjoniya, hozirgi Urganchda vafot etadi. Zamaxshariy davrining buyuk olimi darajadiga ko'tarildi. Juda ko'plab asarlar yaratdi. Ularning ko'pi bizgacha yetib kelgan. Mashhur tarixchi Ibn al-Kiftiyning etirof etishicha, u o'z asrida arab tili d ijod qilgan ajamlar (arab bo'limganlar) orasida eng buyugi bo'lgan.

Mahmud Zamaxshariy buyuk olim sifatida o'zidan keyingi avlodlarga boy ilmiy meros qoldirdi. Qoldirgan asarlarining eng katta qismi arab tili grammatikasiga bag'ishlangan bo'lib, bu sohada o'z faoliyatidagi shoh asarlarini yozdi. Shuning uchun ham Mahmud Zamaxshariy xalq ichida arab tili qoidalarining bilimdoni sifatida tanilgan va mashhur bo'lgan. Mahmud Zamaxshariy katta mehnat qilgan va arab tili rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi.

U kishining barcha sohalarga oid asarlari umumiy soni 50 dan ortiqni tashkil qiladi. Ularning ichida eng muhimlari quyidagilar:

1. Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan shoh asari "Al-Kashshof" nomi bilan ma'lum bo'lgan "Al-Kashshof an haqoqi g'avomizi-t-tanzil va uyuni-l-aqvoli fi vujuhi-t-ta'vil" (Qur'on sirlarining haqiqatini va ta'vil vujuhlaridagi so'zlar ko'zini ochish) asaridir.⁴
2. "Asasu-l-balogs'a" (أساس البلاغة) kitobi. Bu asar arab tili va uning balog'atiga bag'ishlangan asari bo'lib, unda istiora va majozga aloqado masalalarni yoritishga alohida e'tibor bergen. Uning qo'lyozma nusxalari Berlin, Parij, Qohira va boshqa bir nechta shaharlar kutubxonalarida saqlanadi.⁵
3. "Atvoqu-l-zahab fi-l-mavoiz va-l-xitob" (أوقات الذهب في الموانئ و الخطاب).
4. "A'jabu-l-ajab fi sharhi lomiyati-l-arab" (أعجب العجب في شرح لامية العرب).

⁴ "Al-Kashshofning bir necha nusxalari mavjud. Karl Brokkelman aytishicha uning 95 dan ko'proq nusxalari mavjud. Uning 20 dan ziyod sharhi, 9 ta muxtasari, 3 ta raddiyasi mavjud. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma'orif, 1975. – B. 216-217.

⁵ Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma'orif, 1975. – B. 231.

⁶ Bu "An-nasoihu-l-sig'ar" nomi bilan ham nomланади. Uning bir necha nashrlari mavjud.

5. “Al-Amkina va-l-jibal va-l-buqa’i-l-mashhuro fi Ash’aril arab”
– كتاب الأمكانة و الجبال و المياه و البقاع المشهورة في أشهر العرب – Arab she’riyatidagi mashhur joylar, tog‘lar, suvlar va makonlar).
6. “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” (أنموذج في النحو)
7. “Al-Xosoisu-l ashroti-l-kiromi-l-baroro” “O‘ta hurmatli va o‘ta yaxshi o‘n kishining xususiyatlari”).
8. “Ad-Durru-d-doиро-л-muntaxob min kinayat va istiorot va tashbihati-l-arab” (الدر الدائر المنتخب من كنایات و إستعارات و التشبيهات العرب).
9. “Devonu-l-Zamaxshariy” (ديوان الزمخشري)
10. “Robi’u-l-Abror va nususu-l-axbor” (ربيع الأبرار و نصوص الأخبار) ⁷.
11. “Sharhu-l-fasih” (شرح الفصيح) ⁸.
12. “Al-foiq fi g‘aribi-l-hadis” – الفائق في غريب الحديث (“G‘aribi hadis borasida katta kitob”) ⁹.
13. “Al-Qustotu fi-l-aruz” (القططاس في العروض) ¹⁰.
14. “Al-Qasidatu-l-bauziya” (القصيدة البعوضية) ¹¹
15. Al-Mahojat va mutammim mahom arbabu-l-hojot fi-l-ahajiy val ag‘lutoti fi-n-nahv (المحاجت و متمم مهام أرباب الحاجات في الأجاجي و لاغلوطات في النحو) ¹².
16. “Mas’alatun fi Kalimat-i-shahodat” – مسألة في كلمة الشهادة (“Shahodat kalimasi borasida bir mas’ala”) ¹³.
17. “Al-Mufrad va-l-muallaf fi-n-nahv” (المفرد و المؤلف في النحو) ¹⁴.

⁷ Salim No’aimiy tahqiqi ostida 1976-80-yillarda Bog’dodda nashr qilingan. Qarang: Mahmud Zamaxshariy. Asosu-l-balogs’ a. Muhammad Bosil Uyun as-Suda tahqiqi ostida. 1-jild. – Bayrut.: Dorul Kutub Ilmiyya, 2011. – B. 6.

⁸ Sa’labning “Fasih”iga sharh. Turkiyada saray kutubxonasida bitta nusxasi mavjud. Saqalanish raqami 557. Makkai mukarramada Ibrohim G’omidiy tahqiqi ostida Ummul quro nashriyotida hijriy 1417 sanada nashr qilingan. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 235.

⁹ Mu’jam harflar tartibiga ko’ra tuzilgan. Zamaxshariy hijriy 516-yil yozib tugatgan. Hijriy 1354-yil Haydarobodda 2 jild holida nashr qilingan. 1945-48-yillarda Qohirada Muhammad Abul Fazl Ibrohim tahqiqi ostida nashr qilingan. Aynan shu nashr 1971-yilda qayta nashr qilingan. 1997-yilda Bayrutda Ibrohim Shamsiddin tahqiqi ostida nashr qilingan. Qarang: Mahmud Zamaxshariy. Asosu-l-balogs’ a. Muhammad Bosil Uyun as-Suda tahqiqi ostida. 1-jild. – Bayrut.: Dorul Kutub Ilmiyya, 2011. – B. 6.

¹⁰ 1970-yilda Najfda doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy tahqiqi ostida nashr qilingan. 1977-yil Halabda doktor Faxreddin Qubova tahqiqi ostida nashr qilingan. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 229.

¹¹ Doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy tahqiqi ostida 1967-yil Bog’dodda nashr qilingan. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 237.

¹² Imom Zamaxshariy “Al-Kashshof”ni tugatgach 528-hijriy sanada yozgan va uni Makkai Mukarramaning amiri Ali ibn Vahhosga hadya qilgan. Ibn Xallikon uni “Al-muxojat bil-masaili-n-naxviya” deb nomlagan. Aynan shu nom bilan Doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy tahqiq qilgan. 1973-yil Bog’dodda nashr qilingan. Mustafa Hadariy uni “Al-Ahajiyi-n-nahviyya” nomi bilan tahqiq qilgan 1969-yil Suriyada nashr qilingan. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 229.

¹³ Doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy tahqiqi ostida 1967-yilda nashr qilingan. Uni Muhammad Ahmad Doliy qaytadan tahqiq qilib Damashqda 1993 yilda nashr qildirgan. Har ikki muhaqqiq Berlinda saqlanayotgan nusxa asosida tahqiq qilgan.

¹⁴ Buni ham Doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy tahqiq qilgan va 1967-yilda nashrdan chiqqan.

18. “Al-Mufassal fi-n-nahv” (المفصل في النحو)
19. “Maqomatu-z-Zamaxshariy”¹⁵ (مقامات الزمخشري)
20. “Muqaddimatu-l-adab” (مقدمة الأدب)
21. “An-nasoihu-s-sig‘ar” – النصائح الصغار (Kichik nasihatlar). Atvoqu-z-zahab nomli asari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga qarang)
22. “Nukatu-l-e’rob fi g‘aribu-l-e’rob”¹⁶ (نكت الإعراب في غريب الإعراب).
23. “Navobig‘u-l-kalim” yoki “Al-kalimu-n-navobig” – نوابغ الكلم (Nozik iboralar). Bu asarda hikmatlar va nasihatlar saj uslubida yozilgan. Uning qo‘lyozma nusxalari Berlin, Turkiyaning “Ayosofiya” muzeyida, Britaniya muzeyida va Qohirada saqlanadi. Unga Taftazoniy, Muhammad ibn Ibrohim hanbaliy, Salohiddin Muhammad, Muhammad ibn Dehqon va Ali ibn Muhammad Kabidiy kabi olimlar tomonidan ko‘plab sharhlar yozilgan.¹⁷

Nashr qilinmagan kitoblari:

24. “Ta’limu-l-mubtadiy va irshodu-l-muqtadiy” (تعليم المبتدئ و إرشاد المقتدي).
25. “Risolatu-t-tasarrufot” (رسالة التصرف).
26. Risola fil majoz val istiora” (رسالة في المجاز و الاستعارة).
27. “Ruusul masail fil fiqh” – رؤوس مسائل في الفقه (Fiqhda asosiy masalalar)¹⁸
28. “Sharhu abyati kitabi Sibavayh” – شرح أبيات كتاب سيبويه (Sibavayhning kitobidagi baytlar sharhi).
29. “Sharhi ba’zi mushkilati-l-mufassal” – شرح بعض مشكلات المفصل (“Mufassaldagi ba’zi mushkilalar sharhi”).¹⁹

30. “Al-kashfu fi-l-qiroaat” (الكشف في القراءة)

31. “Al-Muhazarotu va-l-Muhavarot”²⁰ (المحاضرات و المحاورات).

32. “Al-Manhaju fi usuli-d-din”²¹ (المنهج في أصول الدين)

Yo‘qolgan kitoblari:

1. “Al-asmau fi-l-lug‘at” . الاسماء في اللغة (Muqaddimatu-l-adab asarining bir juzi).
2. “Kitabu-l-ajnos” (كتاب الأجناس).
3. “Tasliyatuz-zorir” (تسليية الضرائر)

¹⁵ Bu kitob “An-nasoihu-l-kibar” nomi bilan ham tanilgan. Hijriy 1312-yilda sharhi bilan Qohirada nashr qilingan. Uni 1912-yilda Richr olmoniy tiliga tarjima qilgan. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 231-232.

¹⁶ 1977-yilda Qohira, dorul maorif nashriyotida Doktor Muhmud ash-Sharif tahqiqi ostida nashr qilingan. Uning doru-l-kutubi-l-misriyya kutubxonasiда 25102 b raqami ostida qo‘lyozma nusxasi mavjud. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 238.

¹⁷ O’sha asar. – B. 232-233.

¹⁸ Irlandiyaning Chester beatty kutubxonasiда 3600-raqam ostida 106 betlik nusxasi mavjud.

¹⁹ Bitta nusxa Leydenda 164-raqam ostida saqlanadi. Bitta nusxa Venada 154-raqam ostida saqlanadi. Yana bir nusxa “Chester beatty” kutubxonasiда 3655-raqam ostida saqlanadi. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 238.

²⁰ Uni Damashqda 6865-raqam ostida saqlanadigan 106 varaqdan iborat qo‘lyozma nusxasi mavjud. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 238.

²¹ Berlinda 615-raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasi mavjud. Qarang: Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 238.

4. “Javjohiru-l-lug‘at” جواهر اللغة (oxirgi bu 3 ta kitobni doctor Yoqt Himaviy Mahmud Zamaxshariyga nisbat bergen)
5. “Al-amaliy fi-n-nahv” الأُمالي في النحو (Deviyan al-tamsil)
6. “Devonu-t-tamsil” ديوان التمثيل
7. “Devonu-l-xitob” ديوان الخطاب
8. “Devonu rasoil” ديوان الرسائل
9. “Risolatu-l-Asror” رسالة الأسرار
10. “Risolatu-l-mas’ama” رسالة المسمى
11. “Ar-Risolatu-n-nosiha” الرسالة الناصحة
12. “Saviru-l-amsol” كتاب عقل الكل
13. “Somimul Arobiy” متشابه أسامي الرواية
14. “Mutashobihu asomiyi-r-ruvot” متشابه أسامي الرواية
15. “Mu’jamu-l-hudud” معجم الحدود. Bu oxirgi 8 ta kitobni Yoqt Himaviy “Irshodu-l-ariyb” kitobida zikr qilib o’tgan).

Yuqorida zikr qilib o’tilgan asarlar ichida tilshunoslikka oid asarlari alohida qiymatga ega. Zamaxshariy garchi arab bo‘lmasada arab tili grammatikasiga doir bir qancha qimmatli asarlar yaratdi.

Ijodining katta qismini arab tilshunosligining morfologiya, sintaksis, fonetika va lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan va shunga oid 10 dan ortiq asarlar yaratgan.²²

Mahmud Zamaxshariy boshqa ulamolar singari “Qur’oni karimni oyatlariga chuqur nazar solish va uni tafsir qilishga faqatgina arab tili qoidalarini mukammal bilgan olim muvaffaq bo‘ladi. Arab tili qoidalaridan bexabar bo‘la turib Qur’oni karimni sharhlash yoki ta‘vil qilish yoki tafsir qilish bu Alloh taolaning kalomi to‘g‘risida ilmsiz gapirib o‘zini halokatga tashlashdir,” – degan fikrda bo‘lgan. Bu haqida “Al-Mufassal” kitobi muqaddimasida shunday deydi:

وَإِنَّ الْعَرَبَ أَجَدِي مِنْ تَفَارِيقِ الْعُصَمِ . وَأَتَارَهُ الْحَسْنَةُ عَدِيدٌ الْحَصَى . وَمَنْ لَمْ يَتَقَى اللَّهُ فِي تَنْزِيلِهِ ، فَاجْتَرَأَ عَلَى تَعْاطِي تَوْيِيلِهِ ، وَهُوَ غَيْرُ مَعْرِبٍ ، فَقَدْ رَكِبَ عُمَيَاءَ وَخَبَطَ خَبْطَ عَشَوَاءَ ، وَقَالَ مَا هُوَ تَقْوُلُ وَأَفْتَرَاءُ وَهَوَاءُ ، وَكَلَامُ اللَّهِ مِنْهُ بِرَاءٌ . وَهُوَ الْمَرْقَةُ الْمَنْصُوبَةُ إِلَى عِلْمِ الْبَيَانِ ، الْمَطْلُعُ عَلَى نَكْتِ نُظُمِ الْقُرْآنِ ، الْكَافِلُ بِإِبْرَازِ مَحَاسِنِهِ ، الْمَوْكِلُ بِإِثْرَةِ مَعَادِنِهِ ، فَالْمَصَادُ عَنْهُ كَالْسَادُ الْطَرْقُ الْخَيْرُ كَيْلَا تَسْلَكُ ، وَالْمَرِيدُ لِمَوَارِدِهِ أَنْ تَعْفَ وَتَتَرَكُ²³

“E’rob (arab tili) manfaatli narsalarning eng yaxshisi, (o‘rgandan keyingi) asarining yaxshiliklarini chek-chegarasi yo‘qdir. Allohning kalomida Allohga taqvo qilmagan va arab tili dan bexabar tarzda uni ta‘vil qilishga jur‘at qilgan kishi ko‘zi ko‘r tuyani minib, uni qamchilabdi. (Allohning kalomi to‘g‘risida) yolg‘on, bo‘hton va botil gaplarni gapiribdi. Allohning kalomi bulardan xoli va pokdir. U (Arab tili qoidalari)

²² Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 3.

²³ Mahmud Zamaxshariy. Al-Mufassal fiy ilmil Arabiyya. Doktor Faxr Solih Qadora tahrir ostida. – Ummon.: Doru Ammor, 2004. – B. 31.

bayon ilmi uchun o‘rnatilgan narvondir, (ilmi bayon) Qur’oni karim nazmining daqiq joylarini ochib beradi. Uning eng go‘zal joylarini ochib berishga kifoya, uning mag‘zini yoritib berishda suyanchiqdir. (Uni o‘rganishdan) yuz o‘girgan odam yaxshilik yo‘llarini yurilmasligi uchun to‘sib qo‘ygan odam singari, yaxshiliklar manbai yomon ko‘rilishini va tark qilinishini istagan odam kabitidir.”

Shuning uchun ham Zamaxshariy arab tilshunosligiga doir bir nechta kitoblar yozgan. Ulardan biri “Al-mufassal fi-n-nahv” yozgan va shu kitob atrofida yana bir necha asarlar yaratgan. Masalan, undagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish oson va tushunarli bo‘lishi uchun uning ba’zi tushunarsiz bo‘lib qolgan joylarini ochib berish uchun “Sharhi ba’zi mushkilati-l-mufassal” asarini, undagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishni istagan lekin vaqtি oz bo‘lganlar uchun “Al-Mufassal”ni qisqartirib, “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” (الأنموزج في النحو) ni yozdi.

Grammatika doir asarlari ichida “Al-mufassal” arab tili morfologiyasi va sintaksisini o‘rganishda muhim qo‘llanma sifatida Sharqda ham G‘arbda ham katta shuhratga ega bo‘lgan. Zamaxshariy “Al-Mufassal”ni yozishiga sabab qilib, kitobning muqaddimasida shunday deydi:

والذي دفعه إلى وضع هذا الكتاب ما بال المسلمين من الأرب إلى معرفة كلام العرب، وما به من الشفقة والحدب على أشياعه من خدمة الأدب الإنسانية كتاب في الإعراب محظى بكل الأبواب ، مرتب ترتيبا يبلغ بهم الأدب البعيد بأقرب السعي، ويملا سجالهم بأهون السقي²⁴

“Musulmonlarning arablarning gapini tushunishga bo‘lgan orzu-istiklari va u kishining adabiyot shaydolari bo‘lmish yaqinlariga bo‘lgan shafqati va ko‘mak berish hissi barcha boblarni qamram olgan va uzoq masofaga oson yo‘l bilan yetkazadigan va ularning chelaklarini yengil suv bilan to‘ldirib beradgan e’rob to‘g‘risida kitob yozishga undadi”.

Mahmud Zamaxshariyning arab tili gramatikasi katta ahamiyat berishiga sabab, o‘zi zikr qilganidek va boshqa tilshunoslar kabi musulmonlarga o‘z dinini, Qur’oni karim va hadisi sharifni o‘rganishda ularga yengillik yaratishni maqsad qilgan. Uning aynan shu maqsadi bu sohada juda ko‘plab samarali ishlar qilishiga sabab bo‘ldi. Ilmiy faoliyatini aksar qismini shunga ajratdi. Natjida arab tili grammatikasiga doir 10 dan ortiq asarlar yaratdi. Ulardan bir nechtasi to‘g‘risida qisqacha tanishtirib o‘tamiz:

“Muqaddimu-l-adab” asari Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” (adabiyotga kirish) asari tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu asar Xorazmshoh Alovuddavla Otsizga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, 5 qismidan iborat:

Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” (adabiyotga kirish) asari tilshunoslik uchum ham katta ahamiyatga ega. Bu asar Xorazmshoh Alovuddavla Otsizga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, 5 qismidan iborat:

1. Ot

²⁴ Mahmud Zamaxshariy Kitobu-l-Mufassal fi-n-nahv. King Saud University. Qo‘lyozma. №4840.
– V. 4 a-b.

2. Fe'l
3. Bog'lovchilar
4. Ot o'zgarishlari
5. Fe'l o'zgarishlari

Mazkur lug'at kitob o'sha davrda arab tili ning iste'molda bo'lgan barcha so'zлari, iboralarini qamrab oladi. Bu so'zlarning ma'nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlangan. "Muqaddimat ul-adab" fors tilidan tashqari chig'atoy (o'zbek), mo'g'ul, turk tillariga ham tarjima qilingan. Bu asarning bir necha qo'lyozmalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

"Muqaddimat ul-adab" asarning bizgacha yetib kelishi tilshunoslikning katta baxti hisoblanadi. Chunki u o'zbek tili tarixini o'rganishda qimmatli va ishonchli material bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bu haqida Sadreddin Ayniy: "Muqaddimat ul-adab" asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir", - deb yozgan edi. Bu asar asrimizga kelib ko'pchilik tilshunos olimlarning diqqatini tortdi. Ayniqsa N.N Poppe va A.K. Borokovlar uning mo'g'ul va o'zbek tiliga doir qismini tadqiq qilishda va butun asarning matnini nashr qilishda katta xizmat qildilar.

Asarda ismlar tematik tamoyil asosida guruhlarga bo'linadi: vaqt nomlari, osmon jismlari nomlari, tabiat hodisalari nomlari, metall va minerallar nomlari, aloqa yo'llari nomlari, suv bilan bog'liq nomlar, o'simlik nomlari va boshqalar.

Asarda fe'lllar arab grammatikasi an'anasisiga muvofiq o'zak tarkibiga ko'ra sinflarga ajratilgan. "Muqaddimat ul-adab" asarning chig'atoy va mo'g'ul tillaridagi tajima matni 1938-yil N.N.Poppe tomonidan alohida kitob holida nashr etilgan. Bu turkiyshunoslik va mo'g'ulshunoslikda katta voqeа bo'ldi.

Yana bir arab tilshunosligiga bag'ishlangan asarlaridan biri "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" kitobidir. Bu asar uning mashhur va tadqiqotimiz obyekti bo'lmish "Al-Mufassal fi-n-nahv" asarining qisqarmatmasi hisoblanadi. M. Nosirova "Mahmud Zamashariyning "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" risolasida quyidagilarni keltiradi:

"...Ularning (arab tilshunosligiga bag'ishlangan asarlarning) orasida eng mashhuri "Al-Mufassal fi-n-nahv" asari bo'lib, alloma mazkur asarni nihoyatda ilmiy tilda yozgan. Asar juda murakkab bo'lib, boshlovchilarga og'irlik qilgan, amaliyotda foydalanish qiyin bo'lgan. Shu sababli Mahmud Zamashariy ushbu asarni ixchamlashtirib arab bo'limgan millatlarga arab tili ni tez va oson o'rgatish maqsadida "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" – "Nahv ilmidan namuna" asarini yaratgan (1121 y). O'rta asrlarning mashhur bibliografi Hoji Xalifa o'zining "Kashfu-z-zunun" asarida Mahmud Zamashariyning "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" asari haqida shunday deydi: "... "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" alloma Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-

Zamaxshariyga tegishli. U Mufassaldan qisqartirilgan. Uning yaratilishi huddi “Al-Kofiya” (asari) kabi boshlovchilar uchun foydali bo‘ldi”²⁵.

Xulosa o‘rni aytishimiz mumkinki, Mahmud Zamaxshariyning hayotini o‘rganib chiqqan odamga u kishining ilmga qanchalik himmati baland ekanini va bu yo‘lda juda katta mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, o‘sha paytda dunyoning ilm markazlari bo‘lgan Bag‘dod, Hamadon va Makka shaharlariga ko‘p marotaba safar qilib, u yerdagi olim-u fuzalolardan ilm o‘rgangani va hatto tanasiga yetgan nuqson ham uni bu yo‘ldan to‘smagani ma’lum bo‘ladi.

Olim tilshunoslik, adabiyot, jug‘rofiya, tafsir, hadis, fiqh va ilmu-l-qiroatga oid 50 dan ortiq asarlar yaratdi. Ularning ko‘pi bizgacha yetib kelgan. Ijodining katta qismini Arab tilshunosligining morfologiya, sintaksis, fonetika va lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan va shunga oid 10 dan ortiq asarlar yaratgan.

Olim bu sohada, Ibn al-Kiftiy e’tirof etganidek, arab tili d ijod qilgan ajamlar orasida eng buyugi bo‘lgan.

Mahmud Zamaxshariy o‘z asarini kitob muqaddimasida “Al-Mufassal fi son’atu-l-e’rob” deb nomlagan. O‘zbekcha manbalarda esa kitob “Al-Mufassal fi-n-nahv” nomi bilan berilgan. Xususan, Ularning orasida eng mashhuri “Al-Mufassal fi-n-nahv” asari bo‘lib, alloma mazkur asarni nihoyatda ilmiy tilda yozgan.

Asar o‘z zamonasi olimlari tomonidan yaxshi qabul qilinib, o‘rganuvchilar soni ko‘paygach musannifning o‘zi unga “Havashiy al-mufassal fi sonatul e’rob” deb hoshiya yozgan. Vaqt qisqa olimlarga ham undagi ma’lumotlar yetib borishi uchun “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” degan nom ostida kitobni qisqartirgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Malika Nosirova. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 188.
2. Mahmud Zamaxshariy. Al-Mufassal fiy ilmil Arabiyya. Doktor Faxr Solih Qadora tahqiqi ostida. – Ummon.: Doru Ammor. 2003. – B. 565.
3. Doktor Fozil Solih as-Samroiy. Dirosatu-n-nahviyya va-l-lug’aviyya inda-z-Zamaxshariy. – Bag’dod.: Al-Irshod nashriyoti, 1971. – B. 420.
4. Shayx Muhammad Tantoviy. Nash’atun-nahv va tarixu ashthurun-nuhat. - Qohira.: Dorul maorif. – B. 326.
5. Imom Muhammad Abdulaziz an-Najjar. Ziyous solik ila avzohil masalik. 1981-yil. 1-jild. – B. 834.
6. Abdulqodir ibn Umar al-Bag’dodiy. Xizonatul adab va lubbu lubobi lisoni-l-arab. Abdusalom Horun tahqiqi ostida. – Qohira.: Maktabatul xonijiy, 1997. – B. 484.

²⁵ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 3-4.